

COMPOSITION OF THE COLLECTION — "ERK KUYCHILARI" BY YOUNG UZBEK POETS

Orzigul Jalolovna HAMROYEVA

Doctor of Philological Sciences (DSc), Associate Professor
Tashkent State University of Uzbek Language and Literature
Tashkent, Uzbekistan

"ERK KUYCHILARI" TO'PLAMIDAGI O'ZBEK YOSH SHOIRALARI SHE'RIYATI POETIKASI

Orzigul Jalolovna HAMROYEVA

Filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Toshkent, O'zbekiston

ПОЭТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ТВОРЧЕСТВА МОЛОДЫХ УЗБЕКСКИХ АВТОРОВ В СБОРНИКЕ «ЭРК КУЙЧИЛАРИ»

Орзигул Джалоловна ХАМРОЕВА

Доктор филологических наук, доцент
Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы
Ташкент, Узбекистан arguvon87@mail.ru

For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Hamroyeva O. J. "Erk kuychilari" to'plamidagi o'zbek yosh shoiralari she'riyati poetikasi. // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2024. — 10-jild, № 2. — B. 246-255.

<https://doi.org/10.36078/1716275994>

Received: February 24, 2024

Accepted: April 17, 2024

Published: April 20, 2024

Copyright © 2024 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Open Access

Abstract. In today's literary studies, one can find enough studies on the history of literature, modern literature. However, there are still many scientific and theoretical issues that need to be clarified. In particular, in literary studies, studies on the collections and publications of modern poets and their scientific, artistic, journalistic heritage have been created and are being created. However, publications related to the work of mothers, wives, sisters of modern artists who lived and created in the beginning of the 20th century, as well as Uzbek poets in general, have not yet been brought to the attention of readers. In the article, the first collection of young Uzbek poets who lived and created at the beginning of the 20th century - the work "Erk Kuychilari", its composition, the specific characteristics of the work of poets, traditionalism and innovation in the work of artists of the same period are scientifically based. This makes it possible to draw scientific conclusions about the literary environment of the period in determining the place of the works of poets of the beginning of the 20th century in the literature of the period.

Keywords: complex; bayoz; prose; poem; poetess; style; bayoz.

Annotatsiya. Bugungi kun adabiyotshunosligida adabiyoti tarixi, jadid adabiyotiga oid tadqiqotlarni yetarlicha uchratish mumkin. Garchi shunday bo'lsa-da, hali tadqiqini kutayotgan, aniqlik kiritilishi kerak bo'lgan ilmiy-nazariy masalalar talaygina. Xususan, adabiyotshunoslikda jadid shoirlari to'plam va bayozlari nashrlari va ularning ilmiy, badiiy, publitsistik merosiga oid tadqiqotlar yaratilgan, yaratilmoqda. Biroq XX asr boshlarida yashab ijod etgan jadid

ijodkorlarining onalari, ayollari, opa-singillari, umuman, o'zbek shoirlari ijodiga oid nashrlar hali kitobxonlar e'tiboriga havola etilgani yo'q. Maqolada XX asr boshlarida yashab ijod etgan o'zbek yosh shoirlarining ilk to'plami — "Erk kuylari" asari, uning tarkibiy qismi, shoirlar ijodining o'ziga xos xususiyatlari, ayni davr ijodkorlari ijodidagi an'anaviylik va novatorlik kabi masalalar ilmiy jihatdan asoslangan. Bu esa XX asr boshlari shoirlar ijodining davr adabiyotidagi o'rnini belgilashda, davr adabiy muhiti xususida ilmiy xulosalar chiqarishga imkon yaratadi.

Kalit so'zlar: majmua; bayoz; nasr; nazm; shoira; uslub; bayoz.

Аннотация. В сегодняшнем литературоведении можно найти достаточно исследований по истории литературы, современной литературе. Однако остается еще много научных и теоретических вопросов, требующих прояснения. В частности, в литературоведении созданы и создаются исследования по сборникам и публикациям современных поэтов, их научному, художественному, публицистическому наследию. Однако до сих пор вниманию читателей не доводились публикации, связанные с творчеством матерей, жен, сестер современных художников, живших и творивших в начале XX века, а также узбекских поэтов в целом. В статье проанализирован первый сборник молодых узбекских поэтов, творивших в начале XX века, — произведение «Эрк куйлари», рассмотрены его композиция, специфика творчества поэтов, традиционализм и новаторство в творчестве художников того же периода. Это позволяет сделать выводы о литературной среде периода при определении места произведений поэтов начала XX века в литературном процессе того периода.

Ключевые слова: комплекс; байоз; проза; стихотворение; поэсса; стиль; байоз.

Kirish

Ijod ijodkor uslubi va uning ruhiy dunyosi aks etgan betakror jarayondir. Bu ijod mahsuli bizga ijodkor biografiyasidan tortib davr ijtimoiy va adabiy hayoti haqida muayyan tasavvur bera oladigan muhim manba hamdir. Shu jihatdan davr adabiy hayotini belgilashda bu ijod mahsullari tadqiqi bugungi kun adabiyotshunosligi oldidagi muhim vazifalardan biridir.

Shoirlar ijodida barmoq va sochma vaznlarning o'ziga xos yangicha uslubi yaqqol ko'zga tashlanadi. Shoirlar o'z dard-u hasratlarini, faryodlarini, his-tuyg'ularini she'rga solishgan. To'g'ri, she'rlarda ba'zi kamchiliklar ham ko'zga tashlanadi. Biroq bu holat Oybek aytganidek, adabiy muhit, adabiy ta'sir va davr adabiyotidagi yangilanishlar, o'zgarishlar bilan bog'liq. Ayni davrda shakl va adabiy turga oid qonuniyatlar yangilangan, qat'iy belgilanmagan edi. Tabiiyki, bu kamchiliklar ijod qilingani sayin, qalam tebratilgani sayin, fikrlar teranlashgani sayin tuzatiladi, mukammallashadi. Oybek shundan umid qiladi, adabiyot yangilanayotganiga ishora qiladi. Bu adabiyotning yangilanishi, yashab qolishi, takomillashuvi yosh shoir va shoirlar iste'dodiga bog'liq ekanligini ta'kidlaydi.

"Erk kuylari" to'plamiga so'zboshi yozgan S. Lyubimova O'zbekistondagi ayollarning ahvoli haligacha og'ir ekanligi, shoirlar she'rlarida erkka talpinayotgan xotin-qizlar dard-u hasrati aks etganligini baytlar misolida tahlilga tortadi. Qizlarning otalari, akalariga murojaati

tarzida berilgan she'rlarni taqdim qiladi. Shoiralar she'rlarini tahlil qilish asnosida ulardagi bosh g'oya jaholatdan qutulishning yagona yo'li sifatida ilm olish aks etganligini xulosa sifatida keltiradi. S. Lyubimova "bu kitobchadagi she'rlar yozg'anlarning o'zlaridir, ular o'zbek turmushidagi birinchi inqilobchilardir" deya she'rlardagi lirik qahramon shoirlarning o'zi ekanligiga ishora qiladi.

Asosiy qism

Oybek to'plamning tuzilishi borasida alohida to'xtaladi: o'quvchi-qizlar uchun ularning ruhiyatiga mos she'riy asarlar yo'qligi sabab bu to'plam tuzilganini ta'kidlaydi. To'plamga kirgan aksariyat she'rlar xotin-qizlar jurnali — "Yangi yo'l"da bosilib chiqqan. To'plamga ularning saralari kiritilgan. To'plam bu yo'ldagi dastlabki qadam sifatida birinchi kitob tarzida nashr qilingan.

"Yangi yo'l" jurnali 1926-yildan 1930-yillargacha bosilib chiqqan jurnal bo'lib, jurnal har sonida uzluksiz ravishda takrorlanib turuvchi 10 dan ortiq ruknlardan tarkib topgan. Har rukn xotin-qizlarning turli jabhalardagi hayotidan ma'lumot beruvchi materiallardan tashkil topgan.

Jurnalning 1926-yil 1-sonida "Ikki dunyo kurashi", "Lenin va xotin-qizlar", "Qonli yakshanbaning paydo bo'lishi", "Yangi yanvar va ishchilar ahvoli", "Kun botishidagi voqealarga bir nazar", "Chet ellarda" kabi ijtimoiy-siyosiy maqolalar, "Erk kuychisi", "Yoshlar kuchi", "Yetakchi" sarlavhali she'rlar, "Hoy qiz" sarlavhali sochma she'r, "So'nggi dard" nomli hikoya, "Pomir bo'ylarida", "Er islohoti ham xotin-qizlar", "Amaliy hujum", "Vaqt emasmi?", "Butun O'zbekiston muxbirlari kengash majlisi", "Mehnatkash xotinlar uchun yaslalar juda foydalidir..." sarlavhali ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy yangiliklardan iborat maqolalar, xabarlar bosilib chiqqan. Xususan, "Chet ellarda" nomli rukn jurnalning barcha sonida keltirilgan, bu ruknda xitoy ayoli, hind ayoli, afrika ayoli kabi turli millat vakillarining hayoti va faoliyati bilan bog'liq ilmiy va ijtimoiy yangiliklar berib borilgan. Jurnalda xotin-qizlar uchun turli fan sohalar: tibbiyot, matematika, geometriya kabi fanlardan berib boriladigan ilmiy dalillardan iborat yangiliklarning berilishi ularning savodli bo'lishi bilan birga dunyo yangiliklaridan bahramand bo'lishiga imkon yaratgan. Xususan, tibbiyotning amaliy natijalarini o'zida aks ettirgan turli rasmlar, qo'llanmalar qishloq xotin-qizlari uchun muhim ma'lumot ekanligiga urg'u berilgan. Emlash va uning oqibatlarini o'zida aks ettiruvchi rasmlar xotin-qizlarning tibbiy ko'nikmalarini shakllantirishdagi dastlabki qadamlardan biri sifatida muntazam berib borilgan.

Jurnalda maxsus "Adabiyot" rukni bo'lib, bu ruknda shoirlarning she'riy va nasriy asarlari bosilib chiqqan (Jurnalning ba'zi sonlarida "Adabiyot", ba'zi sonlarida "Adabiyot bo'limi" nomlari bilan keltiriladi. — O. H.). Jurnalning 1926-yil 1-sonida "Adabiyot" ruknida G'arib taxallusi bilan ijod qilgan ijodkorning "Erk kuychisi" hamda shoir Matlubaning "Yoshlar kuchi" she'ri da'vat shaklida zamona xotin-qizlarining ahvolidan xabar beradi. Ayniqsa, "Erk kuychisi" she'ridagi mohiyat erkinlikka intiluvchi yoshlar uchun madhiya yanglig' o'ziga xos ifoda va obrazlarga ega.

Kulib turg'an shu chog'dag'i,

*Ko 'ngillarning, ey yo 'lchisi.
Shodliq to 'lg'an bu bog'dag'i,
Ayt kuyingni, erk kuychisi!*

*Har tarafga to 'lqun ketdi,
Bu nurli kun kelib etdi.
Erking berib yana aytdi,
Ayt kuyingni, erk kuychisi!*

*Xotin-qizda na hol edi?
Haqliq kiymin endi kiydi.
Yashnab, kulib, yana dedi:
Ayt kuyingni, erk kuychisi!*

*Biz birlikda to 'lg'anarmiz,
Kuying tinglab, erk olamiz.
Sevinch gulin ham taqarmiz,
Ayt kuyingni, erk kuychisi!*

*Na umidlar to 'lib-toshmish,
Ko 'ngil go 'zal o 'yga oshmish.
Totli kuying nash'a sochmish,
Ayt kuyingni, erk kuychisi! (4, 3)*

Lirik qahramon erk kuychisidan kuyini chalishini, bu kuy insonlar qalbiga umid berishini, kuyning sehridan erkni tuyishini, qalblar to'lg'onishini ishonch bilan ta'kidlaydi. She'rdagi o'ziga xos o'ynoqlik ohangdagi betakrorlikni ta'minlab bergan. "Ayt kuyingni, erk kuychisi" misrasining naqarot tarzida kelishi esa takrordagi musiqiylik bilan birga ta'kidni, ishonchni ifoda qilib turibdi. Baytlar zamiriga singdirilgan "ko'ngil kuychisi", "sevinch guli", "nurli kun", "haqliq kiyimi" kabi istioraviy ifodalar ijodkor uslubi bilan birga she'r badiiyatini oshirishga xizmat qilgan. Shu sabab she'rdagi ohang va mohiyat Oybek tomonidan tuzilgan to'plam uchun sarlavha vazifasini o'tagan.

Jurnalning adabiyotga oid ruknida bir qancha shoir va shoiralarning hikoya, she'r va feletonlar bosilib chiqqan, ular orasida tarjima qilingan hikoyalar ham bor. Bu ruknda bosilgan badiiy parchalar X. Tillaxonova, Hojar G'ulom qizi, Saodat Shamsiddin, S. Burnoshova, Erk Chirchiqboeva, Oydin, Zarifa, Erkchi, Halima Shoumar qizi, Xosiyat Musino, Nurtoy, Komil Alif, Semurg', Madrohim qizi, Mahbuba Rahim qizi, G'arib, Sayyora, Davron, Muazzama, M. Dilovar qizi, Kavkab, Mirtemir, G'ayraty, M. Tojizoda, Borjon, Ibrohim Usmoniy, Yog'du, Z. Sobiriy, T. Sa'diy, Erktoy, Onaxon, Habiba, Gulbek, Nasrullo Oxunov, Qosimjon Hoshimiy, Zarif Bashir kabi shoir, shoirlar qalamiga mansub bo'lib, ba'zi ijodkorlar o'z taxalluslaridagi kinoyaviylikni qo'shtirnoqqa olgan holda keltirganlar. Xususan, "Nurtoy", "Davron", "Gulbek", "Erktoy" kabi taxalluslarning yozilishida bu holatni ko'rish mumkin. Jurnalga kiritilgan she'rlar turli mavzularda bo'lsa ham, ularni erk, ozodlik, ma'rifatga intilish, xotin-qizlar hayoti, da'vat mavzusi birlashtirib turadi. Jurnalning 1927-yil 1-sonida:

- “Hoy qizlar” (Kavkab), “Yosh kashshof qizlar” (Madrahim qizi), 1927-yil 2-son;
- “Qo‘ying, quvnasin” (Mahbuba Rahim qizi), “Paranji” (G‘arib), 1927-yil 3-son;
- “Sakizinci mart” (Sayyora), “Mart kuni” (Muazzama), “Olg‘a” (M.Dilovar qizi), “Tog‘ qizi” (Mirtemir), “Kashshof qiz” (Kavkab), 1927-yil 4-son;
- “Yatima” (Sayyora), “Yana qizg‘a” (Mirtemir), “Bahor” (Mahbuba Rahim qizi), “Tilak” (Dilshod (Narimov nomidagi texnikum o‘quvchisi ekanligi qayd etilgan – O.H.)), 1927-yil 5-son;
- “Ochil” (M.Tojizoda), “Erk gullari” (Muallifi keltirilmagan. Xotin-qizlar bilim yurtini bitirib chiqqanlarga bag‘ishlab yozilgan – O.H.), 1927-yil 6-son;
- “Nechun?” (Onaxon), “Qahramonlar” (Sayyora), 1927-yil 7-son;
- “Kashshof qizg‘a” (Erktoy), “Tilagim yo‘lida” (M. Rahim qizi), 1927-yil 8-son;
- “Erk” (Davron), “Erkin qiz”, “Haqiqat kalomi” (Usmon) (Muxbirlarga bag‘ishlangan – O.H.), 1927-yil 9-son;
- “Yosh g‘uncha” (Yog‘du), “Nash‘ali kunlarda” (Usmon), “Ochilg‘an gul” (Davron), 1927-yil 10–11-sonlar;
- “Yangi yo‘l” (Gulbek), “Paranji qizg‘a” (Mahbuba Rahim qizi), “Kashshof so‘zi” (Usmoniy), “Ochilg‘anlar” (Gulbek), 1927-yil 12-sonida;
- “Qizil oy” (Z. Sobiriy), “Munavvarxon” (Davron), “Nash‘ali bog‘da” (Yog‘du) kabi she‘rlar bosilgan.

Undan tashqari, jurnalning 1927-yilgi sonlarida “So‘nggi dard” nomli “turmush hikoyasi” izohi bilan ozorbayjonchadan Semurg‘ muallifligi ostida, “Tilanchi xotun” nomli G‘ayraty tomonidan, “Hind qizi” nomli Borjon muallifligi ostida, “To‘lg‘un oy” sarlavhali Davron muallifligi ostida, “Nuxoy” sarlavhali “ikki yatim Xitoy turmushida” izohi va Borjon muallifligi ostida, Habibaning “Ikki g‘uncha”, Rafiqovanning “Tog‘ qizi”, T. Sa‘diyning “fojeiy hikoya” tarzida keltirilgan “Ozodliq qurboni” sarlavhali hikoyalari bosilib chiqqan. Bu hikoyalarning aksariyatida ma‘rifatsiz hayot, albatta, jaholatga mahkum ekanligi, bugungi baxtsizlikning asosiy sabablaridan biri — ilmsizlik, beparvolik ekanligi g‘oyalari ilgari surilgan.

“Yangi yo‘l” jurnalining 1928-yilgi sonlarida ham badiiy ijod masalasi, adabiyot masalasi xalqni, xotin-qizlarni faollikka chorlovchi asosiy vosita sifatida maqola, she‘r va hikoyalar shaklida berib borilgan. She‘r va hikoyalarda mazmun va shakl bir qadar takomillashgan o‘rinlar ko‘zga tashlanadi. Jurnalning bu yilgi sonida bosilgan hikoyalar mohiyatida sirlilik, fojiaiviylik, hayotiylik yaqqol ko‘zga tashlanadi. Xususan, Zarif Bashir tomonidan yozilgan “Ozodliq qurbonsiz bo‘lmaydi” hikoyasi hayotiy voqelik asosiga qurilgan bo‘lsa, “Qora xonim”, Qaribiy tomonidan yozilgan “Sirli hikoya” asarlarida fojiaiviylik, sirlilik kabi mohiyat yetakchilik qiladi. Jurnalning 1929-yilgi sonlarida hikoya janriga oid badiiy parchalar ko‘lami va mavzu doirasi ham ancha kengaygan. Jurnalning 1929-yil 4-sonida Hamza Hakimzoda Niyoziyga bag‘ishlab yozilgan bir hikoya bosilgan. Hikoya muallifi Amolaxonim bo‘lib, hikoyaga qo‘shimcha izoh sifatida “xirabo boshqushlari qo‘lida qurbon

bo'lg'an jamoat xodimi H. Hakimzodaga bag'ishlanadi" jumlasini keltirilgan.

Ko'rinib turibdiki, xotin-qizlar jurnali — "Yangi yo'l"da bosilgan adabiy parchalar o'zbek shoirlarining badiiy ijoddagi imkoniyatlarini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Jurnalda bosilgan badiiy asarlar jiddiy tadqiq va tahlilga muhtoj, ularni o'rganish, tadqiqotlar yaratish, bu borada ilmiy xulosalarni taqdim qilish adabiyotshunoslikdagi muhim vazifalardan biridir. Oybek tomonidan tuzilgan "Erk kuylari" majmuasiga ayni jurnalda eng sara she'riy asarlari yig'ilgan. To'plamga kiritilgan shoirlar "Yangi yo'l" jurnalining faol a'zolari sifatida Oybek nazariga tushgan.

"Erk kuylari" to'plamiga Xosiyat Tillaxonova, Hojar G'ulom qizi, Saodat Shamsiddin, S. Burnosheva, Erk Chirchiqboyeva, Oydin, Zarifa, Erkchi, Halima Shoumar qizi, Xosiyat Musino kabi shoirlarning 22 ta she'ri kiritilgan. She'rlar barmoq va sochma shaklida yozilgan bo'lib, ular orasida ijtimoiy lirikaga mansub she'rlar bilan birga qatorda intim lirikaning go'zal namunalari ham uchraydi. Oybek ba'zi shoirlar ijodidan 1 ta, ba'zi bir shoirlar ijodidan 6 tagacha she'rni tanlab oladi. To'plam Xosiyat Tillaxon qizining "Tutqun o'rtog'im" she'ri bilan boshlanadi. Xosiyat Tillaxonova o'z ovozi va o'z yo'nalishiga ega shoirlardan biri bo'lib, o'zbek shoirlari haqida yirik tadqiqot olib borgan adabiyotshunos olim To'xtasin Jalolov shoira hayoti va ijodi borasida "Qizlar qasidasi" asarida yetarlicha ma'lumot berib o'tgan. Olim o'zbek shoirlari ijodi borasida yirik tadqiqot olib borish bilan birga "O'zbek shoirlari"(1959), "Qizlar qasidasi" (1977), "Bonu"(1963), "Go'zallik olamida" (1979) kabi asarlarida shoirlar idodidan namunalar keltiradi, xotiralar va ilmiy izlanishlar orqali shoirlar ijodini tahlilga tortadi. Olim "Qizlar qasida" asari xususida to'xtalganda, ko'ngli Hazrat Navoiyning "Majolis un-nafois" tazkirasi singari majlis qurishni istayotgani, faqat bu majlis ishtirokchilari "zamon gulchehralari, suvrat va siyratlarida, ya'ni botiniy va zohiriy zeboliklarida zarracha shubha yo'q" shoirlar bo'lishini ma'lum qiladi va "Qizlar qasidasi"ni faxriya ekanligini ta'kidlaydi. Olim Xosiyat Tillaxonova, Zulfiya, Oydin Sobirova, Muzayyana Alaviya, Mahbuba Rahim qizi, Saida Zununova, E'tibor Oxunova, Sanobar Hasanova, Gulchehra Jo'rayeva, Gulchehra Nurillayeva, Yayra Sa'dullayeva, Ra'no Uzoqova kabi shoirlar ijodi bilan tanishtiradi.

Xosiyat Tillaxon qizi o'zbek shoirlari orasida o'z uslubiga ega iste'dodli shoira bo'lib, afsuski, erta vafot etgani bois shoira biror to'plamga nashr etilmagan. Shoira she'rlarining to'plam holidan nashr etilmaganining ikkinchi sababi esa To'xtasin Jalolov ta'kidlaganidek, shoira ijodi barq urgan bir davrda o'zbek alifbosi ikki marotaba o'zgarib, nashr imkoniyatini cheklab qo'ygan. "Erk kuylari" to'plamida Xosiyat Tillaxon qizining "Tutqun o'rtog'im", "O'rtog'im ovozi", "Qo'zg'ol, sharq xotinlari", "Qushcha", "Qutilish", "Kutib turaman" kabi she'rlari keltirilgan. Shoira 1928-yildan boshlab "Qizil O'zbekiston" gazetasida xotin-qizlar bo'limi mudirasi, 1929-yildan boshlab esa "Yangi yo'l" jurnalida mas'ul kotib bo'lib faoliyat olib borgan. 1929-yilgacha bo'lgan davrlarda ham shoira she'rlari "Yangi yo'l" jurnalining bir nechta sonlarida e'lon qilingan. Xosiyat Tillaxonova jurnalning mas'ul kotibi sifatida she'riy asarlar bilan bir qatorda publitsistik maqolalar bilan

ham jurnal adabiy hayotida faol ishtirokda bo'lgan. Shoiraning "Yangi yo'l" jurnalining 1928-yil 6-sonida nashr etilgan "O'rta Osiyoda ipakchilik ishining ravnaqi" sarlavhasi ostidagi maqolasida muxbirlik faoliyati aks etgan.

Xosiyat Tillaxon qizi she'rlarida xotin-qizlarning, nafaqat ayollar, balki butun insoniyatning, yurtdoshlarining bunday ahvolga tushishiga o'zlari sababchi ekanliklarini ta'kidlaydi. Aybni o'zidan qidiradi. Shoiraning "Tutqun o'rtog'im" she'rida mana shu isyon markaziy o'rinni egallaydi.

*Sharq qizi, hanuz uyg'onolmading!
Chiqdi, yoqdi kun, to'lg'onolmading!
Yurdi boshqalar ma'rifat sari,
Ul tomong'a sen qo'zg'ololmading! (5, 9)*

Sharq qizining qo'zg'alishi, uyg'onishi va o'zligini anglashi uchun ilm- ma'rifat kerakligi she'rning keyingi bandlarida og'riqli nuqta sifatida tasvirlanadi. Shoiri ilm, ma'rifat inson hayotiga nur olib kirishi, hayoti oydinlashishini Sharq va G'arbdagi vaziyat bilan qiyoslab tushuntiradi.

*G'arbda g'unchalar bargni ochdilar,
G'arb chechaklari hidni sochdilar.
Sharqda bog'chalar bo'ldilar xazon,
Chunki qizlari kundan qochdilar (5, 9).*

She'rning o'ziga xos uslubi shundaki, shoiri mohiyatni bandlar asosida tadrijiy ko'rsatkichda ilmsizlik fojiga sabab bo'lishi, millat, elatning yo'q bo'lib ketishini go'zal ifodalar bilan tasvirlaydi.

*Bir zamonda sen porlag'an eding,
Ma'rifat sari nom olg'an eding.
Turmasang buku, ko'zni ochmasang,
Xor bo'lub bitar sevgili eling (5, 9).*

Xosiyat Tillaxon qizining o'z davrida mashhur bo'lgan she'rlaridan biri "O'rtog'imning ovozi" she'ri bo'lib, she'r "Yangi yo'l" jurnalining 1926-yil 6-sonida bosilib chiqqan. Shoiraning bu she'ri o'zbek qizlari nomidan otaga murojaat shaklida bitilgan. Lirik qahramon otasidan o'g'il va qiz farzand ham dilband, farzand ekanligini, biri o'ng ko'z bo'lsa, ikkinchisi so'l ko'z ekanligini ta'kidlab, ma'noni kuchaytirish maqsadi bilan ularni ne sababdan teng ko'rmasligini savol tarzda so'raydi.

*Ko'rinmasmu otag'a teng o'g'ul-qiz?
Yomonmi o'ng ko'zingiz yoki so'l ko'z?
Yomon deb kim etar dildan jigarni,
Xususan, mehribon, shafqatli yolg'iz? (5, 11)*

Lirik qahramon hatto malaklar ham bo'yin egishi uchun otasi unga palaklar sovg'a qilganini sevinch bilan, faxr bilan aytadi. Bu — baxt, bu baxt lirik qahramon aytmoqchi "ilm bilan munavvar" bo'ladi. Shoiraning

bu she'ri ayni davr ayollarining dard-u hasratlarini o'zida mujassam qilgan madhiya sifatida bir necha marotaba nashr etilgan, xususan, "Yangi yo'l" jurnalida ham bir necha marotaba bosilgan. Shoiraning deyarli barcha she'rlarida ma'rifat targ'iboti, jaholatga qarshi kurash g'oyalari aks etgan bo'lsa-da, "O'rtog'imning ovozi" she'ri mohiyat va ohangdorlikni bir butunlikda taqdim qilgan asar sifatida e'tiborga molik. Xosiyat Tillaxon qizi she'rlarida erkka tashna qalbni qushcha obrazi orqali beradi.

*O'rnidan qo'zg'olib go'zal qushcha,
Chekdi bir faryod ko'kka intildi.
Bu uchish, intilish, hazin ovoz,
Ufq ustini yangg'iratib ketdi (5, 19).*

Qushchaning na'ra tortib uchishi, ko'kka, erkka parvozi ufqni zir titratganini tasvirlay turib, "ko'kda ziyo, elda panoh bor"ligiga ishora qiladi. Shoir aytmoqchi bo'lgan ufq — ilm, ma'rifat. Ilmda, ma'rifatda ziyo va najot borligi she'r pafosini belgilab bergan. Shoiraning to'plamga kiritilgan "Kutib turaman" sarlavhali she'ri ham shakl, mohiyatan o'ziga xos uslubda yozilgan. Xosiyat Tillaxon qizi she'rdagi ohangdorlik asosida mohiyatni yengil va o'ziga xos tarzda yetkazib beradiki, o'qigan kitobxon lirik qahramon tuyg'ulari ifodasidagi go'zal topildiqlardan hayratga tushadi. She'r b-b-b-a, s-s-s-a tarzidagi o'ziga xos shaklda yozilgan bo'lib, to'rtinchi misradagi she'ni birlashtirib turuvchi asosiy qofiya asar mohiyatini o'zida aks ettirgan.

*Yozg'i kechang salqinlarini,
Umid yulduzin yolqinlarini,
O'rtoqlarimning qalquvlarini,
Ko'bdan beri men kutib turaman (5, 26).*

Shoira "Kutib turaman" she'ri orqali yorug'likka, jaholat kishanlarini parchalashga shay turgan jasoratli inson qiyofasida atrofida qilarni ham oldinga da'vat etadi, har qanday to'siq va moneliklarga qarshi kurasha oladigan metin irodaga ega ekanligini baralla so'zlaydi.

*Yolg'iz jaholat kishanlarini,
O'zim parchalab zanjirlarini,
Surub butunlay monelarini,
Poklab bu yo'ldan men ham boraman (5, 26).*

Ko'rinib turibdi, Xosiyat Tillaxon qizi adabiy jarayonda o'z o'rniga ega shoira sifatida olimlarning, munaqqidlarning diqqat markazida turgan. Shu bois Oybek ham uning ijodiga ayrica munosabatda bo'lgan, to'plamga shoira she'rlaridan 6 tasini kiritgan.

To'plamga kiritilgan she'rlar o'ziga xos uslub va ritmga ega bo'lib, XX asr boshlarida kirib kelgan yangicha she'riy tizim elementlaridan tortib, obrazlarigacha yangilanishni aks ettirgan. Hojar G'ulom qizining "Kim ul?" she'ri ham ana shu ifodadagi o'ziga xoslik bilan ajralib turadi. Shoira savol shaklidan qoliplovchi vosita sifatida foydalangan. Oydinlik — qorong'ilik zidlanishi she'r yukini singdirimli bo'lishini ta'minlagan.

*Kim ul, nega muncha mungli kuylaydir?
Umidsiz holda kimni yo'qlaydir?*

*Nima uchun bunday umidsizlanmak?
Oydin qolib qorong'ida ezilmak? (5, 17)*

Shoira savollariga javob izlaydi: qorong'ilikda turgan qizning ko'zlari oydan najot kutishini, qo'l-oyog'i bog'langani sababini axtaradi, atrofdagilardan qizning bunday ahvoliga tushishiga sababchi kim ekanligini so'raydi, javob berguvchi, qo'lidagi bog'ichlarni yechguvchi — najotkorni qidiradi. She'r so'nggi o'ziga xos xotima bilan yakunlanadi, kitobxon shoiradan o'z qahramonining — qorong'ilikda turgan qizning yorug'likka chiqishini kutib turadi, lekin shoira she'rni

*Boqdim, bir qiz, lekin kimdir, bilmadim,
Qorong'ida edi, ilg'ay olmadim (5, 17).*

tarzida yakunlaydi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ko'ngil obrazi shoiralar ijodining asos markazida turuvchi obraz sifatida Cho'lpon she'rlaridagi isyonni eslatadi. Oydingning "Umidsiz ko'ngil" she'rida shoira ko'ngilning loqayd ekanligidan shikoyat qiladi.

*Xalqni to'plag'an choqda,
O'zini otmag'an ko'ngil.
Qayg'ili ohlar chiqqanda,
O'zini xushlag'an ko'ngil (5, 18).*

Yurti uchun, vatani, erki uchun yonmagan ko'ngilni "hayotni tashlagan" ko'ngil sifatida baholab, bundan ko'ngil "o'limni yodlagan", o'lik ko'ngil ekanligiga ishora qiladi.

*Hayotni tashlag'an choqda,
O'lumni yodlag'an ko'ngil (5, 18).*

Shoira Oydin Sobirova nazm va nasrda birdek mahorat bilan qalam tebratgan ijodkor sifatida "Yorqin hayot" (Hozirgi "Saodat" jurnali — O.H.) jurnalining adabiyot bo'limi mudirasi sifatida faoliyat ko'rsatgan, bevosita ijodiy va ilmiy muhitda yashagan, shoiraning "Yangilikka qadam" dramatik asarlari o'z davrida juda e'tibor bilan sahnalashtirilgan.

To'plamda XX asr boshlarida kirib kelgan sochmalardan namunalar ham uchraydi. Erk Chirchiqboyevaning "Sharq qizi" she'ri ayni shu shaklda yozilgan bo'lib, shakl qonuniyatiga ko'ra misralararo bo'g'inlarning miqdori va qofiya tizimiga amal qilinmagan. She'rdagi mohiyat Sharq qiziga da'vat tarzida yozilgan.

*Sharq qizi, tur uyqungdan,
Uyg'onishg'a vaqt keldi.
Buzub toshlar, devollarni,*

*Tashla qora chachvonni.
Kel bizning safimizga
Quloch yozib, kutib turamiz sani,
Yuz o'gur senga qarshiliq ko'rsatuvchi
har bir narsadan (5, 15).*

Yigirmanchi yillarning o'rtalaridan boshlab “Yorqin hayot”, “Maorif va o'qitg'uchi”, “Yer yuzi” jurnallari, shuningdek, gazeta sahifalarini inqilob bahorining boychechaklari: Xosiyat Tillaxonova, Oydin Sobirova, Mahbuba Rahim qizi, Muzayyana Alaviya kabi shoirlarning she'rlari bezab turardi (3).

Xulosa

Ta'kidlash joizki, XX asr boshlarida o'zbek yosh shoirlari ijodida bo'lgani kabi yosh shoirlar ijodi ham o'ziga xos evrilish bosqichini boshdan kechirgan: vazn va obrazlar tizimidagi yangilanishlar ijtimoiy muhit va lirik qahramon tuyg'ularining parallel ravishdagi tasviri an'ana tusiga kirgan, hali qat'iy qolip shaklini olmagan, nazariyasi to'liq ishlab chiqilmagan sochmalar shoirlar dard-u hasratlarini yetkazuvchi vosita bo'lib xizmat qilgan, she'rdagi mohiyat ilm targ'iboti va jaholatga qarshi ma'rifat g'oyalari bilan sug'orilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jalolov T. Qizlar qasidasi. 1-kitob. — Toshkent, 1976. — 132 b.
2. Jalolov T. Qizlar qasidasi. 2-kitob. — Toshkent, 1977. — 114 b.
3. Karimov N., Mamajonov S., Nazarov B. va boshqalar. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. — Toshkent: O'qituvchi, 1999. — 544 b.
4. G'arib. Erk kuychisi // “Yangi yo'l” jurnali. — T., — 1926. — № 1. — 7 b.
5. Erk kuylari. To'plam. (To'plab nashrga tayyorlovchi: Oybek). — Toshkent: O'zbekiston davlat nashriyoti, 1926. — 30 b.

References

1. Jalolov T., *Kizlar kasidasi. 1-kitob* (Girls ' Castle. Book 1), Tashkent, 1976, 132 p.
2. Jalolov T., *Kizlar kasidasi. 2-kitob* (Girls ' Castle. Book 2), Tashkent, 1977, 114 p.
3. Karimov N., Mamajonov S., Nazarov B., *XX asr o'zbek adabiyoti tarixi* (History of Uzbek Literature of the 20 Century), Tashkent: Uqituvchi, 1999, 544 p.
4. *Yangi yul* jurnali, 1926, No.1, 7 p.
5. *Erk kuylari, Tuplam* (Music of Freedom, Collection), Tashkent: Uzbekiston davlat nashriyoti, 1926, 30 p.